



## TRADITION AND INNOVATION IN THE POETRY OF THE PERIOD OF NATIONAL LITERATURE

**Nigora Azizova**  
**Doctoral student,**  
**Tashkent State Oriental Studies university**  
e-mile: [nigora\\_2125@mail.ru](mailto:nigora_2125@mail.ru)

**Abstract:** The article analyzes the period of national literature, which is the peak of the development of modern Turkish poetry. The era of national literature was formed in the period after the Tanzimat era, and the work of artists who made an important contribution to its development was also mentioned. Attention is also paid to the factors of formation of new poetry, and the issues of tradition and innovation highlighted in the poetry of this period are analyzed on the example of the poems of poets who created new researches.

Information was given about the works of prominent and famous poets of the period of national literature Mehmet Emin Yurdaqul, Yahya Kamal Beyatli and Ziya Gokalp, and their poems were studied. Also, Yahya Kamal Beyatli's "Silent Ship" ("Sessiz gemi") and Ziya Gokalp's "Motherland" ("Vatan") poems were directly translated into Uzbek, and the feelings of the lyrical hero in the poem and dreams were analyzed.

**Key words:** National literature, poetry, tradition, innovation, young writers, nationality.

**MILLIY ADABIYOT DAVRI SHE'RIYATIDA AN'ANA VA  
NOVATORLIK**

Azizova Nigora

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktorantie-mile:  
[nigora\\_2125@mail.ru](mailto:nigora_2125@mail.ru)**

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy turk she'riyatining rivojlanish cho'qqisi bo'lgan milliy adabiyot davri haqida ma'lumot berilgan. Milliy adabiyot davri Tanzimot davridan keyingi davrda shakllangan, uning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan ijodkorlar faoliyati ham tilga olingan. Yangi she'riyatning shakllanish omillariga ham e'tibor qaratilgan. Bu davr she'riyatida ko'zga tashlangan an'ana va novatorlik masalalari yangicha izlanishlarda ijod qilgan shoirlar she'rlari misolida tahlil qilingan. Milliy adabiyot davrining ko'zga ko'ringan, mashhur shoirlari Mehmet Emin Yurdaql, Yahyo Kamol Beyatli va Ziyo Go'kalp ijodi haqida ma'lumot berilib, ularning she'rlari o'rganilgan. Shuningdek, Yahyo Kamol Beyatlining "*Sassiz kema*" ("*Sessiz gemi*") va Ziyo Go'kalpning "*Vatan*" ("*Vatan*") she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, she'rдagi lirik qahramon histuyg'ulari, o'y va orzulari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Milliy adabiyot, she'riyat, an'ana, novatorlik, yosh qalamkashlar, milliylik.

**Аннотация:** В статье анализируется период национальной литературы, который является пиком развития современной турецкой поэзии. Эпоха национальной литературы сформировалась в период после эпохи Танзимата, также было упомянуто творчество художников, внесших важный вклад в ее развитие. Также уделяется внимание факторам формирования новой поэзии, а вопросы традиции и новаторства, освещенные в поэзии этого периода, анализируются на примере стихов поэтов, создавших новые исследования. Была дана информация о творчестве выдающихся и известных поэтов периода национальной литературы Мехмета Эмина Юрдакюла, Яхъя Камала Беятли и Зии Гокалпа, изучены их стихи. Также были непосредственно переведены на узбекский язык стихи Яхъи Камала Беятли «Тихий корабль» ("*Sessiz gemi*") и

Зии Гокалпа «Родина» (“*Vatan*”), проанализированы чувства лирического героя поэмы и сны.

**Ключевые слова:** Национальная литература, поэзия и поэзия, традиции и новации, молодые писатели.

Milliy adabiyot davrining dastlabki yillaridagi shoirlarning ijodi oldingi davr ijodkorlaridan bir oz farq qiladi. Bu davrda milliy adabiyot atamasi jadid adabiyoti tushunchasi bilan yondosh qo‘llangan. Shu sababdan “Adabiyoti jadida” istilohi bilan yondosh holda “Milliy adabiyot davri” degan tushuncha ham ishlatiladi.

Rossiya-Turkiya va Bolqon urushlaridagi mag‘lubiyat turk ziyolilari orasida “millatparvarlik” tushunchasining tezlik bilan yoyilishiga sabab bo‘ldi. Istanbulda bir-biri bilan musoboqalashuvchi millatparvar jamiyatlar tashkil etildi. Milliy adabiyot harakatining ilk nashri afkori 1911-yilda Salonikida chiqarilgan “Yosh qalamkashlar” jurnalni hisoblanadi. Milliy adabiyot ushbu jurnal atrofida yig‘ilgan yoshlardan adabiyoti sanaladi. “Milliy manbalarga qaytish”, til soddaligi, mahalliy xalq hayotini tasvirlash, an’anaviy aruz o‘rniga barmoq vaznini qo‘llash va xalq og‘zaki ijodiga xos she’r shakllaridan foydalanish milliy adabiyotning yetakchi konsepsiyalari hisoblanadi. Turk adabiyoti tarixida bu bosqich Mashrutiyat (1911-1918) va Mutareke (1919-1922) davrlarini o‘z ichiga oladi. Mashrutiyat davrida ijod qilgan yozuvchilar, asosan, 80-yillar avlodi bo‘lsa, Mutareke davrining yozuvchilari esa 90-yillar avlodi hisoblanadi. Milliy adabiyotni rivojlantirishda “Çocuk Bahçesi” (“Bolalar bog‘chasi”), “Genç Kalemler” (“Yosh qalamkashlar”), “Türk Derneği” (“Turk uyushmasi”), “Türk Yurdu” (“Turk yurti”) va “Halka Doğru ve Türk Sözü” (“Xalq yo‘lida va turk so‘zi”) singari gazeta va jurnallarning ham hissasi juda katta bo‘ldi.

Milliy adabiyot davri she’riyatini tushunish umume’tirofga aylangan bo‘lsa ham, bu davr she’riyatini bir sarlavha ostida to‘plash haligacha imkon yo‘q. Ushbu davrda uchta asosiy tendensiya paydo bo‘ladi. Ulardan birinchisi Ziyo Go‘kalp va uning davrasiga sodda tilda va barmoq vaznida she’rlar yozgan shoirlar guruhidir. Bu ismlar orasida eng ko‘zga ko‘ringan ism Mehmet Emin Yurdaquldir. Mehmed

Emin Yurdaqulning mashhur manzumasi “Ey, turk, uyg‘on” ham turkiyaliklar hayotida, tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Aytishlaricha, bu manzumani Anvar Posho avvaliga 15000, keyin 10000 adadda bostirib, butun askarlarga tarqattirgan. [4.b.7] Bu manzuma satrlari minglab, millionlab turklarni, turk-usmonli askarlarni Vatan va millat uchun yashash yo‘liga olib chiqdi. Yurdaqulning barcha she’ri o‘z davrining hayoti bilan chambarchas bog‘langan. Mehmet Emin Yurdaqulning she’rlarida vatan va vatanni anglash g‘oyalari yaqqol aks etadi. Mehmet Emin Yurdaqulning she’riy asarlariga nazar solar ekanmiz, uning mumtoz she’riyatda bo‘lgan she’riy shakllarning qariyb hammasida ijod etganining guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda uning nafaqat shoir, balki she’riyat bilimdoni ekanini ham ko‘rishimiz mumkin.

Bu davrda sof (mohiyatli) she’riyatga xos izlanishlar ham bo‘lgan. Yahyo Kamolni ko‘pchilik she’rlari bilan shu tarzda she’r yozgan shoirlarga misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Xassos shoir insonning qalbiga yaqin va uni larzaga soluvchi, moziyni kuylovchi she’rlari bilan turk adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirdi. Yahyo Kamol she’riyatining tilini tushunish uchun uning badiiy ijodga kirib kelishiga ta’sir ko‘rsatgan shoirlar haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishimiz kerak. U Parijda yashagan paytlarida fransuz adabiyotini sevib o‘qiydi, xususan, Pol Verlen, Moler, Pol Valeri, Jerar de Nerval, Sharl Bodler, Viktor Mari Gyugo, Fransua de Malerb, SHarl Mari Rene Lekont de Lil, Artyur Rembo, Joze Mariya de Eredia, Jan Moreas, Teofil Gote, Teodor de Banvil, Alfons de Lamartin, Anri de Rene, Edgar Allan Po singari dunyoga mashhur shoirlarning ijodidan ilhom oladi. Bu shoirlar qalamga olgan she’rlarining g‘oyasi, shakli, ohangi, ma’no-mazmuni, tili va uslubi xilma-xildir. Yahyo Kamol turk she’riyatining tarixi bilan ham yaqindan tanishadi va kuzatishlari natijasida o‘ziga xos uslubga ega shoir bo‘lib ulg‘ayadi. Shoir she’rlariga nazar solsak, unda ham mumtoz, ham zamonaviy she’riyatning namunalarini ko‘ramiz.

Yahyo Kamol nazdida she’riy asar “qalbdagi har bir hodisani tilda aks ettirishdir, hissiyotni qalbdan til orqali ifodalashdir.” [2.b.48] Bundan ko‘rinib turibdiki, shoir she’rlarida qalbdagi hissiyot ustunlik qiladi. Yahyo Kamol she’riyat

haqidagi fikrlarini shunday davom ettiradi: “Fikrlarimiz vazn bilan ifoda etilganda haqiqiy she’rning qandayligini ko‘rsatib bermasa ham, bitta misraning she’r yoki she’r emasligini aniqlash unchalik qiyin emas. Ammo she’r hissiyotlarga boy bo‘lmasa, bunday asar she’r hisoblanmaydi.” [2.b.48]

Yahyo Kamol she’riyatda barmoq va aruz vazni o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik yo‘qligini aytadi. Unga ko‘ra aruz va hijoni aka-ukalarga va hatto Firot va Dijle daryosiga o‘xshatadi. Ya’ni aruz bilan hijo birlashganidek, Firot va Dijle ham yonma-yon oqib, nihoyat yakunida birlashadilar. Shuningdek, Yahyo Kamol arabiyy, forsiy va turkiy she’riyatning shakllari aynan bir xilligini, madaniyati, irfoni, kelib chiqishi bir-biriga yaqin ekanligini alohida ta’kidlaydi. [2.b.133]

Shoir tirikligida she’rlarini kitob holida nashr qildirmagan. Uning vafotidan keyin Istanbul, Fotih jamiyati tomonidan qurilgan Yahyo Kamol instituti “Kendi Gökkubbemiz” (1961), “Eski Şiirin Rüzgariyle” (1962), “Rubailer” (1963) ve “Aziz İstanbul” (1964) “Eğil dağlar” (1966) “Siyasi ve Edebi Portreler” (1968) “Siyasi Hikayeler” (1968) nomlari bilan nashr qilingan.

Shuningdek, shoir Vatan tuyg‘usini o‘z she’rlarida estetik did bilan ifoda etadi. Yahyo Kamol nazdida, dunyoda har bir millatning o‘z tug‘ilgan ona vatani bo‘ladi va bu vatan ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib qoladi deb aytadi. Shuningdek, o‘z millati va vatani haqida yozilgan asarlar tarix sahifalaridan joy oladi, shuningdek, xalqimiz qanday millat ekanligini his qiladi va o‘rganadi deydi.

Vatan tuproqlari har bir millat hayotida juda ahamiyatli hisoblanadi. Insoniyatga milliy shaxsiyatlarini ko‘rsatuvchi vatan tuprog‘i, o‘rmonlari, tog‘lari, musaffo osmoni va butun koinoti. Bularning barchasi “vatan” tushunchasini o‘z ichiga oladi. Bir millatga mansub bo‘lgan shaxslar, bularning hammasi o‘z tarixi va sarhadlarini qaerda boshlab qaerda tugashi kerakligini bilishlari, har bir shaxsning tug‘ilgan joyi o‘z vatani ekanligi, vafot etganda ham aynan vatan sarhadlariga ko‘milib mangu uyquga ketishini anglay olishini alohida ta’kidlaydi. Yahyo Kamolning vatan haqidagi o‘y-u fikrlari uning she’rlarida aks etadi. U Fransiyada yashagan paytlarida vatan sog‘inchi butun qalbini egallaydi, bu esa uning shoir sifatida yanada “ulg‘ayishi”da muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir she’rlarida o‘lim,

ayriliq, yolg‘izlik singari mavzular ko‘p kuzatiladi. Shuningdek, uning “*Sassiz kema*” (“*Sessiz gemi*”) she’ri ana shunday she’rlar sirasiga kiradi. Quyida she’rning asliyatdagi matnini keltiramiz:

***Sessiz gemi* [5.b.118]**

*Artık demir almak günü gelmişse zamandan,  
Meçhule giden bir gemi kalkar bu limandan.  
  
Hiç yolcusu yokmuş gibi sessizce alır yol;  
Sallanmaz o kalkışta ne mendil ne de bir kol.  
  
Rıhtımda kalanlar bu seyahatten elemli,  
Günlerce siyah ufka bakar gözleri nemli.  
  
Biçare gönüller! Ne giden son gemidir bu!  
Hicranlı hayatın ne de son matemidir bu!  
  
Dünyada sevilmiş ve seven nafile bekler;  
Bilmez ki giden sevgililer dönmeyecekler.  
  
Birçok gidenin her biri memnun ki yerinden,  
Birçok seneler geçti; dönen yok seferinden.*

She’rning birinchi baytiga diqqat qaratamiz:

*Agar langar tashlash kuni kelgan bo ‘lsa shu onda,  
Noma’lum tomonga ketayotgan bir kema qalqar qirg‘oqda.*

Ushbu baytda inson hayotining tugayotgani va sanoqli daqiqalari haqida fikr boradi. “*Langar tashlash kuni*” so‘zlari bilan inson umrining poyoniga yetayotganini, “*Noma’lum tomonga ketayotgan bir kema qalqar qirg‘oqda*” esa bu dunyodan tark etib, narigi dunyoga yo‘l ochilayotgani tasvirlanadi. Bu baytda “*noma’lum tomonga ketayotgan kema*” va “*liman*” so‘zlari orqali istiora san’ati qo‘llanilgan.

Ikkinci bayt:

*Yo ‘lovchisi yo ‘qdek go ‘yo sassiz yo ‘l olar,  
Hilpiramas bu ketishda na ro ‘molcha, na qo ‘llar.*

Bu baytda vafot etgan insonning tobuti olib ketilish vaqtinazarda tutilmoxda. Shuningdek, janoza namozida marhumni sekingina tobutdan olib qabrga

qo‘yilishi tasvirlangan. Bu xayrlashuv onida na ro‘molcha, na qo‘l bilan xayrlasha olishi ko‘rsatiladi. Yo‘lovchisi yo‘qdek go‘yo sassiz yo‘lga tushgan bu kema ramziy ma’noda tobutni anglatadi.

Uchinchi bayt:

*Bekatda qolganlar bu sayohatdan alamda,*

*Necha kunlar ufqqa boqar, ko‘zlari namda,*

Bu baytda marhumning yaqinlarida kechayotgan kechinmalar tasvirlanadi. Vafot etgan insonning yaqinlari bu dunyoni tark etgan inson uchun bir necha kunlar davomida aza tutadilar.

“Rihtimda kalanlar” ya’ni “bekatda qolganlar” birikmasi esa vafot etgan insonning yaqinlari, ortidan qolgan insonlar nazarda tutilmoqda.

To‘rtinchi bayt:

*Bechora ko‘ngil! Ketayotgan kemalarning oxiri emas.*

*Hijronli dunyoning ham oxirgi motami emas.*

Bu baytda bir insonning vafot etishi bilan bog‘liq o‘lim voqeasi tugamaganligi, bunday o‘limlarning chegarasi yo‘qligi, bu foniylar dunyoni bir kun kelib barcha inson tark etishi va ular uchun qanchalik motam tutmaylik bu motam oxirgi motam emasligi tasvirlangan.

Beshinchi bayt:

*Bu dunyoni sevilgan ham, sevgan ham behuda kutayotganini.*

*Bilmaydi, sevishganlar ortga qaytmasligini.*

Shoir bu baytda inson vafot etgandan so‘ng yana tirilib kelishiga ishonadi. Baribir vafot etganlar boshqa qaytib kelmasligini uqtirishga harakat qiladi, bekorga vaqt ketkazib kutmaslikni ta’kidlaydi.

Oxirgi bayt:

*Bu erlarni tark etganlar hayotidan mammundir,*

*Yillar o‘tsa ham, ortga qaytish imkoni yo‘qdir.*

Shoir oxirgi baytda necha insonlar u dunyoga ketgan bo‘lsalar ham juda ham baxtiyor ekanliklarini, bu dunyoni tark etib qaytmasligini, arshi a’loda hayotlarini davom ettirishlarini, safardan qaytganlar yo‘qligini tasvirlaydi.

Umuman olganda, shoir she'rda insonning u dunyoga rixlat qilishini safarga ketayotgan bir kemaga o'xshatadi. Safarga kuzatayotganlar esa sokin kemaga termulgancha uning safardan qaytib kelishiga ishonishadi. U kema juda uzoq safarga otlangani uchun qaytib kelmasligini bilmaganlar, u insondan umidini uzmasligini, aksincha kutib yashayverishini, qisqa qilib aytganda bu dunyoda qilgan yaxshiliklari evaziga oxiratda baxtli hayot kechirishini aytadi. Yahyo Kamol she'riyati zamonaviy turk adabiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir qalbida kechayotgan ruhiy kechinmalarini she'r vositasida lirik qahramon tilidan ifoda etadi. Uning hayotidagi butun voqeliklar she'rga solib kuylanadi. Zamonaviy she'riyatning yangi avlodlari hali hamon Yahyo Kamol Beyatli she'rlaridan ruhiy quvvat olib, uning adabiy merosidan ta'sirlanib ijod qilib kelmoqdalar.

Ziyo Go'kalp ham bir qator turk ziyolilari kabi badiiy va ilmiy ijodga usmonli millatchisi sifatida kirib kelgan bo'lib, u milliy adabiyot davrida, xususan, 1911-yilda "Yosh qalamkashlar" jurnalida chop etilgan "Turon" manzumasi bilan turkchilikka qadam tashlaydi. [8.b 219]. Turk ma'rifatparvar shoiri Ziyo Go'kalp qisqa umr ko'rdi, ammo turk ma'rifatparvarlik adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Millat dardi, millat qayg'usi, millat kelajagi har doim uning she'rlarida o'z aksini topdi. U bu borada Umar Sayfiddin va Ali Jonib bilan birqalikda 1911-yilda "Yosh qalamkashlar" jurnaliga asos soldi. "Yangi lison" harakatining yo'lboshchi ma'rifatparvarlaridan biri edi. Ma'lumki, "Yangi lison" harakati "Yosh qalamkashlar" jurnali atrofida birlashgan adabiyotshunoslar vujudga keltirgan tilda soddalashuv harakatidir. "Yosh qalamkashlar" jurnali atrofida yig'ilib, "Yangi lison" harakatini boshlaganlar davrning turkchilik harakati faoliyatini yuritgan ijod va mutafakkir kishilaridir. 1911-yilda Salonikida "Yosh qalamkashlar" atrofiga yig'ilgan yangi lisonchilar dastlab "Milliy adabiyot" atamasini ham tilga oldilar. Umar Sayfiddin, Ziyo Go'kalp, Ali Jonib, Akil Kuyunji boshchiligidagi yangi lisonchilar "Milliy adabiyot milliy til bilan yaratiladi" qarashini himoya qiladi va turk tilining soddalashishi uchun mazkur qoidani qabul qiladilar:

1. Arabcha va forscha grammatik qoidalardan foydalanmaslik, bu qoidalalar asosida yaratilgan so'zlardan voz kechish;

2. Arabcha va forscha so‘zlarning turk tilidagi talaffuzida yozilishi;
3. Boshqa turk shevalaridan so‘z olmaslik;
4. Istanbul shevasi asosida yangi adabiy tilni yuzaga keltirish;
5. Til va adabiyotning Sharq-G‘arb taqlidchiligidan xalos bo‘lishi.

Turk shoir, yozuvchi va mutafakkirlari orasida qisqa muddat ichida tarqalgan bu yangi til va milliy adabiyot tushunchasi adabiy oqim holiga kiradi va davrning aksariyat shoir va yozuvchilari shu qarash asosida asarlar yozdilar. Bu davrda sodda tilda asarlar yozgan shoir va yozuvchilardan ba’zilari Umar Sayfiddin, Ziyo Go‘kalp, Faruk Nafiz (Chamlibel), Holid Fahri (Ozansoy), Orxon Seyfi (Orxon), Yusuf Ziyo (O‘rtach), Enis Behich (Ko‘ryurek), Holida Adib (Adivar), Yoqub Qodri (Qorausmono‘g‘li), Rafiq Holid (Qo‘roy), Rashod Nuri (Guntekin), Yahyo Kamol (Beyatli)dir. [3.b.28] “Yosh qalamkashlar” jurnali dunyo yuzini ko‘ra boshlagan yili, ya’ni 1911-yilda zamonaviy turk adabiyotining yangi davri – Milliy adabiyot davri boshlanadi. Bu davr Ziyo Go‘kalp ijodining ayni gurkiragan yillariga to‘g‘ri keladi.

Shoir ijodida ona-vatan mavzusiga bag‘ishlangan qator she’rlari bor. Barchaga yod bo‘lib ketgan shunday she’rlaridan biri “Vatan” she’ridir:

*Bir ülke ki toprağında başka ilin gözü yok,  
Her ferdinde mefkûre bir, lisan, adet, din birdir...  
Mebusânı temiz, orda Boşo ‘ların sözü yok,  
Hududunda yevlâtları seve seve can verir,  
Ey Türkoğlu, işte senin orasıdır vatanın!* [1.b.704]

Tarjiması:

*Bir o ‘lkaki, tuprog‘ida boshqa elning ko ‘zi yo ‘q,  
Har insonda mafkura bir, til-u odat, din birdir.  
Xalq noibi pokdil, unda amaldorlar so ‘zi yo ‘q,  
Tuprog‘ida avlodlari behalovat ko ‘z yumar.  
Ey turk o ‘g ‘lon, mana sening jannatmakon vataning!*

Tahlillardan ko‘rinadiki, shoir she’riyatida turkiy xalqning mavqeini yanada yuksaltirish, uni dunyoga tanitish haqidagi qarashlar yaqqol seziladi. Shuni ham

alohida ta'kidlash kerakki, uning "Vatan" she'ri o'zbek shoirlari ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu haqda adabiyotshunos P.Kenjayeva ham o'zining fikrlarini bildirgan: Turk va o'zbek she'riyatidagi ana shunday uslubiy mushtaraklik Ziyo Go'kalp va Oybek ijodida ham kuzatiladi. Shoир "Bir o'lkaki" anaforasi bilan har bir bandda she'r ma'nosini kuchaytirishga erishadi. Aynan mana shu kuchaytirishda o'zbek adabiyotining ijodga tashna shoiri Oybek she'riyati esga tushadi. Uning vatan haqidagi "*O'zbekiston*" she'rida ham xuddi shunday satrlar takrorini kuzatamiz. [7.b.385]. Oybek va Ziyo Go'kalp ijodiga oid manbalarni ko'zdan kechirganimizda, shaxsan ular ko'rishmagan, lekin Oybek turk she'riyatidan yaxshi xabardor bo'lgan. Xususan, bunday ta'sirlanish jarayonini akademik N.Karimov ham shunday izohlaydi: Oybek 1922-yildan boshlab she'riyatda tetapoya qila boshlagan paytda Cho'lpon va yangi turk she'riyati namoyandalarining asarlari yoshlari o'rtasida mashhur edi. U 20-yillarda, boshqa tengdoshlari qatori, ana shu she'riyat jilg'alaridan bahramand bo'ldi. [6.b.319]

Ziyo Go'kalp zamonaviy turk adabiyotini o'zining yangicha qarashlari va fikrlari bilan boyitdi. Shuningdek, uning ijodida folklor, devon adabiyotining namunalari ham uchraydi, shu bilan birga zamonaviy adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, pedagogikaga oid asarlari ham bor. U butun bir turk xalqi uchun qayg'urdi, turk xalqining qalbidagi kechinmalarni she'rga soldi, turli sharoitlarda yuzaga kelgan his-tuyg'ulari, fikriy qarashlarini asarlari mohiyatiga singdirdi.

Umuman olganda, milliy adabiyot davri she'riyatida yangicha shakl va mazmun izlanishlari bir qator shoirlarning ijodida kuzatiladi. Ular zamonaviy turk she'riyatining shakllanishiga katta hissa qo'shdilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akyüz K. Batı Tesirinde Türk Şiiri Antalojisi (1860-1923). İstanbul-1971.
2. Beyatlı Y.K. Edebiyata Dair. İstanbul Fetih Cem., İstanbul-1997.
3. Елўқ В.С., Кенжава П. Кутимаган мөхмон. "Akademnashr" нашр., Т-2011.

4. Yurdaqul M.E. Ey, turk uyg‘on: She’rlar; Turkchadan T.Qahhor tarj. – T.: “Yozuvchi”, 1997.
5. Kahraman A. Yahya Kemal Beyatlı. Şüle Yayınları, Çemberlitaş/İstanbul-1998.
6. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари (биринчи китоб). Ўзбекистон нашриёти. Т.: 2008.
7. Кенжава П. Замонавий ўзбек ва турк шеъриятида услуг типологияси // “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишининг долзарб масалалари” мавзусидаги Халқаро конференция материаллари. Т.2018.
8. Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatı (1839-2000). Grafiker Yayınları, Ankara-2015.